



# ОММАВИЙ ОФЕРТА

Публичная  
оферта

## OMMAVIY OFERTA

avtomototransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomalarini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o'tkazish bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga.

«AUTODRIVER STUDY» MCHJ (Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi 02.02.2022-yil dan boshlab AVHT 1895-son litsenziyasi), bundan keyin «Bajaruvchi» deb yuritiladi, direktor A.A. Orexova rahbarligi ostida, Nizom asosida ish yuritib, ushbu ommaviy ofertada ko'rsatilgan shartlarda har qanday manfaatdor jismoniy shaxsga avtomototransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomalarini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o'tkazish bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzishni taklif qiladi.

### 1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Xizmat – «A», «B», «C», «D», «BE», «CE» va «DE» toifalaridagi transport vositalarini boshqarish huquqini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlar;

Sertifikat – nazariy va amaliy imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan shaxslarga beriladigan va haydovchilik guvohnomasini olish uchun asos bo'ladigan maxsus himoyalangan sertifikat;

Ommaviy oferta – shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga olgan taklif bo'lib, unda taklifni bildirgan shaxsning taklifda ko'rsatilgan shartlar bo'yicha har qanday shartnoma tuzish istagidagi shaxslar bilan bitim tuzish shartlari aks ettiriladi;

Aksept – bu shaxsning uni qabul qilishga to'liq va so'zsiz munosabati. Ommaviy ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilish – Buyurtmachining avtomototransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomalarini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarga ro'yxatdan o'tishi va har bir tegishli imtihon uchun to'lov qilishi bilan tan olinadi.

### 2. SHARTNOMA MAVZUSI

2.1. Bajaruvchi Buyurtmachiga avtomototransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomalarini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o'tkazish bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlarini taqdim etish majburiyatini, Buyurtmachi esa ushbu xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

2.2. Imtihonlarga «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 27-moddasida belgilangan yoshga to'lgan shaxslar kiritiladi.

## ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА

на оказание негосударственных образовательных услуг по проведению теоретических и практических экзаменов для получения водительских удостоверений на право управления автотранспортными средствами.

ООО «AUTODRIVER STUDY» (Лицензия Государственной инспекции по надзору за качеством образования при Кабинете Министров от 02.02.2022 г. № AVHT 1895), именуемое в дальнейшем «Исполнитель», в лице директора А.А. Ореховой, действующей на основании Устава, на указанных в настоящей публичной оферте условиях предлагает заключить любому заинтересованному физическому лицу договор на оказание негосударственных образовательных услуг по проведению теоретических и практических экзаменов для получения водительских удостоверений на право управления автотранспортными средствами.

### 1. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ

Услуга – теоретические и практические экзамены на право управления транспортными средствами категорий «А», «В», «С», «D», «BE», «CE» и «DE»;

Сертификат – специальный защищенный сертификат, выдаваемый лицам, успешно сдавшим теоретические и практические экзамены, и являющийся основанием для получения водительского удостоверения;

Публичная оферта – содержащее все существенные условия договора предложение, из которого усматривается воля лица, делающего предложение заключить договор на указанных в предложении условиях с любым, кто отзовется;

Акцепт – полный и безоговорочный ответ лица о ее принятии. Полным и безоговорочным акцептом публичной оферты признается регистрация Заказчика на теоретический или практический экзамен для получения водительских удостоверений на право управления автотранспортными средствами и оплата каждого соответствующего экзамена.

### 2. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА

2.1. Исполнитель обязуется оказать Заказчику негосударственные образовательные услуги по проведению теоретических и практических экзаменов для получения водительских удостоверений на право управления автотранспортными средствами, а Заказчик обязуется оплатить эти услуги.

2.2. К сдаче экзаменов допускаются лица, достигшие возраста, установленного статьей 27 Закона Республики Узбекистан «О безопасности дорожного движения».

### 3. XIZMATLAR NARXI VA TO'LOV TARTIBI

3.1. Milliy haydovchilik guvohnomasini olish uchun nazariy va amaliy imtihonlarni o'tkazish bo'yicha xizmatlar pullik asosda ko'rsatiladi.

3.2. Imtihonlarni o'tkazish uchun to'lov miqdori Bajaruvchi tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va quyidagilarni tashkil etadi:

- nazariy imtihonni birinchi marotaba topshirish uchun – 1 500 000 (Bir million besh yuz ming) so'm;
- nazariy imtihonni har bir takroran topshirish (qayta topshirish) uchun – 1 600 000 (Bir million olti yuz ming) so'm;
- nazariy imtihonni birinchi urinishdan muvaffaqiyatli topshirilgan kunning o'zida amaliy imtihonni birinchi marotaba topshirish uchun amalga oshiriladigan to'lov miqdori – 1 500 000 (Bir million besh yuz ming) so'm; (ushbu to'lov nazariy imtihonni muvaffaqiyatli topshirilgan kunidan boshlab 2 oy davomida haqiqiy deb hisoblanadi);
- agarda to'lov boshqa kuni amalga oshiriladigan bo'lsa – 1 600 000 (Bir million olti yuz ming) so'm miqdorida belgilanadi;
- nazariy imtihonni topshirish zarurati bo'lmasa amaliy imtihonni birinchi marotaba topshirish uchun – 1 500 000 (Bir million besh yuz ming) so'm;
- nazariy imtihon takroran topshirilgandan (qayta topshirilgandan) so'ng amaliy imtihonni birinchi marotaba topshirish uchun – 1 600 000 (Bir million olti yuz ming) so'm;
- amaliy imtihonni har birini takroran topshirish (qayta topshirish) uchun – 1 600 000 (Bir million olti yuz ming) so'm.

3.3. Bajaruvchi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 243-moddasi birinchi qismi 10-bandiga muvofiq QQS solinmaydi.

3.4. Avtomatlashtirilgan avtodromda texnik nosozliklar tufayli avtodromning avtomatlashtirilgan tizimida imtihon topshirishning uzoq muddatga (7 kundan ortiq) imkoni bo'lmagan taqdirda, amaliy imtihonni o'tkazish uchun to'lov miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi tomonidan belgilanadi.

3.5. Har bir imtihon uchun to'lov oldindan va alohida amalga oshiriladi. Haydovchilikka nomzodga to'lov amalga oshirilganligi tekshirilgandan va uning axborot tizimi orqali tasdiqlanganidan so'ng imtihon topshirishga ruxsat beriladi.

3.6. To'lov usullari: bank kartalari (UzCard, Humo) va turli to'lov vositalari (masalan: PayMe, Click va boshqalar) orqali boshqa elektron to'lov vositalaridan foydalanish; Bajaruvchining kassasida naqd pulda.

### 3. СТОИМОСТЬ УСЛУГ И ПОРЯДОК РАСЧЕТОВ

3.1. Услуги по проведению теоретического и практического экзаменов для получения национального водительского удостоверения, оказываются на платной основе.

3.2. Размер платы за проведение экзаменов определяется Исполнителем самостоятельно и составляет:

- за сдачу первой попытки теоретического экзамена – 1 500 000 (Один миллион пятьсот тысяч) сум;
- за каждую повторную сдачу (пересдачу) теоретического экзамена – 1 600 000 (Один миллион шестьсот тысяч) сумов;
- за сдачу первой попытки практического экзамена: в случае оплаты в день успешной первой сдачи теоретического экзамена – 1 500 000 (Один миллион пятьсот тысяч) сум; (платеж сохраняется за кандидатом в водители в течение 2-х месяцев со дня успешной сдачи теоретического экзамена);
- в другой день после успешной сдачи теоретического экзамена – 1 600 000 (Один миллион шестьсот тысяч) сумов;
- за первую сдачу практического экзамена, без необходимости сдачи теоретического экзамена – 1 500 000 (Один миллион пятьсот тысяч) сум;
- за первую сдачу практического экзамена, после повторной сдачи (пересдачи) теоретического экзамена – 1 600 000 (Один миллион шестьсот тысяч) сумов;
- за каждую повторную сдачу (пересдачу) практического экзамена – 1 600 000 (Один миллион шестьсот тысяч) сумов.

3.3. Услуги, оказываемые Исполнителем, не облагаются НДС в соответствии с пунктом 10 части первой статьи 243 Налогового кодекса Республики Узбекистан.

3.4. В случае длительной (более 7 дней) невозможности сдачи экзамена в автоматизированной системе автодрома из-за технических сбоев на автоматизированном автодроме, размер платы за проведение практического экзамена определяется Министерством внутренних дел Республики Узбекистан по согласованию с Министерством финансов Республики Узбекистан.

3.5. Платеж за каждый экзамен осуществляется предварительно и отдельно. Кандидат в водители допускается к экзамену после проверки осуществления платежа и его подтверждения через информационную систему.

3.6. Способы оплаты: с помощью банковской карты (UzCard, Humo) и иных электронных средств платежа через различные платежные инструменты (например, PayMe, Click и др.); наличными в кассе Исполнителя.

3.7. Imtihon natijalaridan qat'iy nazar, to'lovlar qaytarilmaydi.

3.8. Agar Buyurtmachi uzrli sabablarsiz (kasalligi yoki boshqa hujjatlashtirilgan sabablarga ko'ra) belgilangan (bron qilingan) vaqtda imtihonga kelmasa yoki kechiksa, xizmat ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Sabablarini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilgandan so'ng, to'lov to'langan deb hisoblanadi va qayta topshirishga ruxsat beriladi.

#### 4. ARIZALARNI KO'RIB CHIQISH VA QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Avtotransport vositasini boshqarish huquqini qo'lga kiritmoqchi bo'lgan Buyurtmachi to'g'ridan-to'g'ri yoki onlayn imtihon o'tkazish uchun ariza bilan Bajaruvchiga murojaat qiladi.

4.2. «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 27-moddasida ko'rsatilgan yoshga to'lgan Buyurtmachi Bajaruvchiga quyidagi hujjatlarni qog'oz yoki elektron shaklda taqdim etishi shart:

a) ariza (shakl Bajaruvchi tomonidan belgilanadi (ushbu Ommaviy ofertaga ilova) va <https://cabinet.yim.uz> saytida joylashtiriladi);

b) pasport yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsni tasdiqlovchi boshqa rasmiy hujjat nusxasi;

v) haydovchilar va haydovchilikka nomzodlarni, ularning transport vositalarini boshqarishga yaroqliligini tekshirish uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom (2013-yil 27-iyundagi 2472-son) bilan tasdiqlangan tegishli toifadagi transport vositasini boshqarishga yaroqliligi va sog'lig'ining holati to'g'risidagi 083/x-shakldagi tibbiy ma'lumotnoma nusxasi;

g) tegishli toifadagi avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash (qayta tayyorlash) dasturi bo'yicha o'qishni tamomlaganligi to'g'risidagi yagona namunadagi guvohnoma nusxasi (ushbu bandning «d» kichik bandida ko'rsatilganlardan tashqari);

d) avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash bo'yicha tasdiqlangan yagona o'quv rejasiga kiritilgan fanlarni to'liq o'zlashtirishni talab qiluvchi mutaxassisliklar bo'yicha oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar va texnik ta'lim muassasalarining o'quv rejasi fanlarini o'zlashtirganligi to'g'risidagi diplomlarning nusxalari (ushbu bandning «g» kichik bandi);

3.7. Независимо от результатов проведенного экзамена, платежи возврату не подлежат.

3.8. В случае неявки Заказчика на экзамен в назначенное (забронированное) время без уважительной причины (в случае болезни или иных подтвержденных документами) или опоздания услуга считается оказанной. При представлении документов, подтверждающих причины, платеж считается оплаченным и допускается передача.

#### 4. ПОРЯДОК ПРИНЯТИЯ И РАССМОТРЕНИЯ ЗАЯВЛЕНИЙ

4.1. Заказчик, желающий получить право на управление автотранспортным средством, обращается к Исполнителю с заявлением о проведении экзамена непосредственно или в режиме онлайн.

4.2. Заказчик, достигший возраста, указанного в статье 27 Закона Республики Узбекистан «О безопасности дорожного движения», обязан представить Исполнителю следующие документы в бумажном или электронном виде:

a) заявление (форма определяется Исполнителем (приложение к настоящей Публичной оферте) и размещается на сайте <https://cabinet.yim.uz>);

б) копию паспорта или иного его заменяющего официального документа, удостоверяющего личность;

в) копию медицинской справки о состоянии здоровья и пригодности к управлению транспортным средством соответствующей категории по форме №083/х, утвержденной Положением о порядке проведения медицинского осмотра водителей и кандидатов в водители для проверки их годности к управлению транспортными средствами (рег. №2472 от 27.06.2013 г.);

г) копию удостоверения единого образца о прохождении обучения по программе подготовки (переподготовки) водителей автотранспортных средств соответствующей категории (за исключением указанных в подпункте «д» настоящего пункта);

д) копии дипломов высших и средних специальных, профессионально-технических учебных заведений и дипломов об усвоении предметов учебного плана по специальностям, требующим полного усвоения дисциплин, включенных в утвержденный унифицированный учебный план подготовки водителей автотранспортных средств (подпункт «г» настоящего пункта);

j) qonun hujjatlarida almashtirilishi kerak bo'lgan haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lgan, toifasini to'ldirmoqchi yoki mavjud toifalarini attestatsiyadan o'tkazmoqchi bo'lgan shaxslarni tekshirish nazarda tutilgan hollarda, ushbu bandning «a», «b» va «v» kichik bandlarida ko'rsatilgan hujjatlar ilova qilingan holda haydovchilik guvohnomasining nusxasi;

z) transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilingan va qonun hujjatlari-da nazarda tutilgan boshqa hollarda, ushbu bandning «a», «b» va «v» kichik bandlarida ko'rsatilgan hujjatlar bilan birga imtihonni o'tkazishga vakolatli ichki ishlar organining ruxsatnomasi nusxasi.

4.3. Ariza kelib tushgan kundan boshlab Bajaruvchining mas'ul xodimi tomonidan 24 soat ichida (dam olish kunlari bundan mustasno) ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, Buyurtmachining elektron pochta manziliga (yoki telefon raqamiga) imtihonlarni o'tkazilish vaqti, shartlari va imtihonlar uchun to'lov miqdori to'g'risida elektron xabar yuboriladi.

4.4. Buyurtmachi tomonidan imtihon xizmatini ko'rsatganlik uchun belgilangan to'lovni to'lashi, uning xizmat ko'rsatish shartlariga roziligini bildiradi. Imtihon uchun to'lov tasdiqlangandan keyin, imtihon vaqtlari band qilinadi.

4.5. Avtomatlashtirilgan axborot tizimi murojaat etuvchilarga ariza kelib tushgan kundan boshlab 7 ish kuni ichida xizmat ko'rsatishi shart.

4.6. Imtihonlarni topshirish uchun ajratilgan vaqtni o'zgartirish (faqat boshqa kunga qoldirish) nomzod tomonidan <https://cabinet.yim.uz> saytida amalga oshirilishi mumkin. Imtihonlar uchun ajratilgan vaqt tugashiga 24 soatdan kam vaqt qolgan hollar bundan mustasno.

4.7. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ariza beruvchiga 24 soat ichida xizmatlarni ko'rsatishning kechikishi haqida elektron shaklda xabar beriladi.

4.8. Fors-major holatlari bartaraf etilgach, Buyurtmachi ikki ish kuni ichida imtihonlarni topshirish uchun ajratilgan vaqt haqida elektron shaklda xabardor qilinadi.

4.9. Xizmatni taqdim etish rad etilgan taqdirda, Buyurtmachiga rad etish sabablari huquqiy me'yorlarga asoslangan holda elektron shaklda bildirishnoma yuboriladi.

ж) копию водительского удостоверения с приложением документов, указанных в подпунктах «а», «б» и «в» настоящего пункта, в случаях, когда законодательством предусмотрена проверка лиц, имеющих водительское удостоверение на замену, дополнительную категорию и аттестацию существующей категории;

з) копию разрешения уполномоченного органа внутренних дел на проведение экзамена вместе с документами, указанными в подпунктах «а», «б» и «в» настоящего пункта, лишенным права управления транспортным средством и в иных случаях, предусмотренных законодательством.

4.3. Заявление рассматривается ответственным сотрудником Исполнителя в течение 24 часов с момента поступления (кроме нерабочих дней). По результатам рассмотрения на адрес электронной почты (или номер телефона) Заказчика будет направлено электронное сообщение о времени, условиях и размере оплаты услуг по проведению экзаменов.

4.4. Осуществление Заказчиком установленной платы за оказание услуги по проведению экзамена означает его согласие с условиями оказания услуги. Время сдачи экзаменов резервируется после подтверждения платежа.

4.5. Автоматизированная информационная система должна обеспечить обслуживание заявителей в течение 7 рабочих дней с даты получения заявления.

4.6. Изменение времени, отведенного для сдачи экзаменов (перенос только на другой день), может быть произведено кандидатом на сайте <https://cabinet.yim.uz>. За исключением случаев, когда до времени, зарезервированного для экзаменов, осталось менее 24 часов.

4.7. В случае форс-мажора заявитель будет уведомлен в электронном виде о задержке оказания услуги в течение 24 часов.

4.8. После устранения форс-мажора Заказчик будет уведомлен в электронном виде о времени, зарезервированном для сдачи экзаменов, в течение двух рабочих дней.

4.9. В случае отказа в предоставлении услуги Заказчику направляется уведомление в электронной форме с указанием причин отказа и ссылками на нормы законодательства.

## 5. IMTIHONLARNI O'TKAZISH TARTIBI

5.1. Imtihonlarga <https://cabinet.yim.uz> sayti orqali ariza topshirgan va ushbu Ommaviy oferta shartlari asosida to'lovni amalga oshirgan Buyurtmachilar kiritiladi.

5.2. Belgilangan manzilga imtihon uchun belgilangan (zaxiralangan) vaqtda kelgan Buyurtmachilar, ushbu Ommaviy ofertaning 4.2-bandining «b» – «j» kichik bandlarida ko'rsatilgan hujjatlarining asl nusxalarini taqdim etadilar. Ushbu hujjatlar yozuvlar bilan bog'liq ma'lumotlar bilan taqqoslanadi va shundan so'ng egasiga qaytariladi.

5.3. Imtihonlar Bajaruvchining avtomatlashirilgan imtihon tizimida quyidagi ketma-ketlikda o'tkaziladi: birinchi navbatda – nazariy, keyin – amaliy.

5.4. Nazariy imtihonni topshira olmagan shaxslarning amaliy imtihon topshirishlariga ruxsat berilmaydi.

5.5. Nazariy imtihonda Buyurtmachining Yo'l harakati qoidalari va o'quv rejasida ko'zda tutilgan boshqa fanlar bo'yicha bilimini, amaliy imtihonda esa transport vositasini boshqarish qobiliyatini sinovdan o'tkazadi va baholaydi.

5.6. Nazariy imtihondan o'ta olmagan shaxsga, amaliy imtihon topshirishga ruxsat etilmaydi, nazariy imtihon ko'zda tutilmagan holatlar bundan mustasno. Qayta topshirish imtihoni oldingisidan 7 kundan kam bo'lmagan muddatga o'tkazilishi mumkin.

5.7. Nazariy imtihonlarda olingan ijobiy baho ikki oy davomida haqiqiy hisoblanadi. Agar haydovchilikka nomzod ushbu muddatda amaliy imtihonlarni topshira olmasa, uning nazariy imtihonda olgan ijobiy bahosi ham bekor qilinadi.

5.8. Haydovchilikka nomzodning nazariy va amaliy imtihonlari natijalariga ko'ra haydovchining imtihon varaqasi va imtihon natijalari bayonnomasi avtomatik ravishda elektron shaklda tuziladi.

5.9. Haydovchining imtihon varaqasi va imtihon natijalari bayonnomasi qonun hujjatlarida tasdiqlangan shakllarga muvofiq tuziladi.

5.10. Nazariy va amaliy imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan nomzodlarga qonun hujjatlari bilan tasdiqlangan shakldagi maxsus sertifikat beriladi.

5.11. Maxsus sertifikatning barcha rekvizitlari avtomatik tarzda ichki ishlar organlari va davlat xizmatlari markazlariga yuboriladi.

5.12. Maxsus sertifikat milliy haydovchilik guvohnomasini, sertifikat berilgan kundan boshlab 1 yil muddatda berish uchun asos hisoblanadi.

## 5. ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ ЭКЗАМЕНОВ

5.1. К экзаменам допускаются Заказчики, подавшие заявление через сайт <https://cabinet.yim.uz> и совершившие оплату на основании условий настоящей Публичной оферты.

5.2. Заказчики, прибывшие по указанному адресу в назначенное (зарезервированное) время к экзамену, представляют оригиналы документов, указанных в подпунктах «б» – «ж» пункта 4.2 настоящей Публичной оферты. Эти документы сравниваются со сведениями, связанными с делопроизводством и затем возвращаются владельцу.

5.3. Экзамены проводятся в автоматизированной экзаменационной системе Исполнителя, в следующей последовательности: вначале – теоретический, затем – практический.

5.4. Лица, не сдавшие теоретический экзамен, к практическим экзаменам не допускаются.

5.5. На теоретическом экзамене проверяются знания Заказчика по Правилам дорожного движения и другим предметам, предусмотренным учебным планом, а на практическом экзамене проверяется и оценивается умение управлять автотранспортным средством.

5.6. Лицо, не сдавшее теоретический экзамен, не допускается к практическому экзамену, за исключением случаев, когда теоретический экзамен не предусмотрен. Повторные экзамены могут быть проведены не ранее чем через 7 дней после предыдущего.

5.7. Положительная оценка, полученная на теоретических экзаменах, считается действительной в течение двух месяцев. Если кандидат в водители не сможет сдать практические экзамены в течение этого срока, его положительная оценка, полученная на теоретическом экзамене, также будет аннулирована.

5.8. По результатам теоретического и практического экзаменов кандидата в водители автоматически формируется экзаменационный лист водителя и протокол результатов экзамена в электронном виде.

5.9. Экзаменационный лист водителя и протокол результатов экзамена оформляются по формам, утвержденным законодательством.

5.10. Кандидатам, успешно сдавшим теоретический и практический экзамены, выдается специальный сертификат по форме, утвержденной законодательством.

5.11. Все реквизиты специального сертификата автоматически передаются в органы внутренних дел и центры государственных услуг.

5.12. Специальный сертификат является основанием для выдачи национального водительского удостоверения в течение 1 года с момента выдачи.

## § 1. NAZARIY IMTIHONNI O'TKAZISH TARTIBI

5.13. Nazariy imtihon nazariy imtihon xonasida (kabinetida) joylashgan avtomatlashtirilgan ish joyi (imtihon kabineti) yordamida o'tkaziladi.

5.14. Nazariy imtihon test shaklida o'tkaziladi.

5.15. Nazariy imtihon paytida haydovchilikka nomzod avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan belgilangan avtomatlashtirilgan ish joyini egallaydi.

5.16. Nazariy imtihon oldidan avtomatlashtirilgan ish joyidagi monitorda quyidagilar ko'rsatiladi:

- ushbu avtomatlashtirilgan ish joyining raqami;
- haydovchilik imtihoni topshiriladigan transport vositasi toifasi;
- haydovchilikka nomzodning familiyasi, ismi va otasining ismi (agar mavjud bo'lsa), tug'ilgan yili.

5.17. Nazariy imtihon 20 ta elektron (animatsiyali) test savollaridan iborat. Har bir savolda 2 – 5 ta javob varianti mavjud bo'lib, ulardan 1 tasi to'g'ri bo'lishi shart.

5.18. Haydovchilikka nozodning xohishiga ko'ra nazariy imtihon o'zbek, rus va qoraqalpoq (Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida) tillaridan birida topshirilishi mumkin. Agar boshqa chet tilidan nazariy imtihon topshirish zarurati tug'ilsa, tarjimon ishtirok etishiga ruxsat beriladi.

5.19. Imtihon savollari avtomatlashtirilgan axborot tizimida shakllantiriladi va nomzod avtomatlashtirilgan ish joyidagi klaviaturaning tegishli tugmasini bosganida monitor ekranida paydo bo'ladi.

5.20. Nomzodga imtihon savollariga javob berish (to'g'ri javobni tanlash) uchun 25 daqiqa vaqt beriladi. Imtihon vaqti avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan yuritiladi, shundan so'ng imtihon avtomatik ravishda to'xtatiladi.

5.21. Imtihon savollariga javoblar ketma-ketligi nomzod tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

5.22. Test paytida tugmachani tasodifan bosish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish uchun haydovchilikka nomzod tugmani qayta bosish orqali javoblar tanlovini tasdiqlaydi.

## § 1. ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОГО ЭКЗАМЕНА

5.13. Теоретический экзамен проводится с использованием автоматизированного рабочего места (экзаменационного кабинета), расположенного в теоретическом экзаменационном зале (кабинете).

5.14. Теоретический экзамен проводится в форме теста.

5.15. Во время теоретического экзамена кандидат на сдачу экзамена по теории занимает автоматизированное рабочее место, определенное автоматизированной информационной системой.

5.16. Перед теоретическим экзаменом на мониторе автоматизированного рабочего места указываются:

- номер данного автоматизированного рабочего места;
- категория транспортного средства, на право управления которой сдается экзамен;
- фамилия, имя и отчество (при наличии) кандидата в водители, год рождения.

5.17. Теоретический экзамен состоит из 20 электронных (анимированных) тестовых вопросов, в каждом вопросе 2 – 5 вариантов ответа, 1 из которых должен быть правильным.

5.18. По желанию кандидата в водители теоретический экзамен может быть сдан на одном из языков: узбекском, русском и каракалпакском (на территории Республики Каракалпакстан). При необходимости сдачи теоретического экзамена на другом иностранном языке допускается присутствие переводчика.

5.19. Экзаменационные вопросы формируются в автоматизированной информационной системе и появляются на экране монитора, когда кандидат нажимает соответствующую клавишу на клавиатуре автоматизированного рабочего места.

5.20. Кандидату дается 25 минут на то, чтобы ответить на вопросы экзамена (выбрать правильный вариант ответа). Время экзамена подерживается автоматизированной информационной системой, после чего экзамен автоматически останавливается.

5.21. Последовательность ответов на экзаменационные вопросы выбирается кандидатом добровольно.

5.22. Во избежание споров, которые могут возникнуть в результате случайного нажатия клавиши во время экзамена, кандидат в водители подтверждает выбранные им варианты ответа повторным нажатием клавиши.

5.23. Nomzod barcha imtihon savollariga javob bergan yoki imtihonga ajratilgan vaqt tugaganda, nazariy imtihon natijalari, barcha savollarga berilgan javoblarning to'g'ri/noto'g'riligi va sarflangan vaqt monitor ekranida ko'rsatiladi. Imtihon natijalari bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimida shakllantirilgan imtihon varaqasining elektron shakli ham ekranda ko'rsatiladi.

5.24. Nazariy imtihon natijalari avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali avtomatik tarzda baholanadi. Shu bilan birga, nomzodning imtihondagi savollari imtihon uchun ajratilgan vaqtda:

- haydovchilikka nomzod 18 tadan ortiq savolga to'g'ri javob berganida – «topshirdi»;
- haydovchilikka nomzod 18 tadan kam savolga to'g'ri javob bergan taqdirda, yakuniy baho avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan avtomatik ravishda «topshira olmadi» bahosi qo'yiladi.

5.25. Imtihon vaqtida nomzodlarga har qanday adabiyot, mobil, texnik va boshqa vositalardan foydalanish, imtihon jarayonida ishtirok etmayotgan shaxslar, shuningdek, boshqa nomzodlar bilan muloqot qilish taqiqlanadi.

5.26. Bunday holatlar aniqlansa, imtihon to'xtatiladi va nomzod avtomatlashtirilgan axborot tizimi (Davlat Yo'l harakati xavfsizligi inspeksiyasi xodimi, kuzatuvchi, operator) tomonidan imtihondan chetlashtiriladi va yakuniy «topshira olmadi» bahosini oladi.

5.27. Nazariy imtihonda avtomatlashtirilgan axborot tizimida xato aniqlanganda (yoki yuzaga kelganda), haydovchilikka nomzodlar uchun yakuniy baho bekor qilinadi va xato tuzatilgandan so'ng test takrorlanadi (qayta o'tkaziladi).

5.28. Nazariy imtihon natijalariga ko'ra haydovchining imtihon varaqasi va imtihon natijalari bayonnomasi avtomatik ravishda elektron ko'rinishda shakllantiriladi, QR-kod bilan tasdiqlanadi, haydovchilikka nomzodning talabiga ko'ra imtihon varaqasining bosma qog'ozdagi nusxasi unga taqdim etiladi.

5.23. Когда кандидат ответил на все экзаменационные вопросы или истекло время, отведенное на экзамен, на экран монитора выводятся результаты теоретического экзамена, правильность/неправильность ответов на все вопросы и затраченное время. Электронная форма экзаменационного листа, сформированного в автоматизированной информационной системе по результатам экзамена, также будет отображаться на экране.

5.24. Теоретические результаты экзамена автоматически оцениваются автоматизированной информационной системой. При этом вопросы кандидата на экзамене в отведенное на экзамен время:

- когда кандидат в водители ответил правильно более чем на 18 вопросов – «сдал»;
- когда кандидат в водители ответил правильно менее чем на 18 вопросов – итоговая оценка «не сдал» ставится автоматизированной информационной системой автоматически.

5.25. Кандидатам не разрешается во время экзамена пользоваться какой-либо литературой, мобильными, техническими и иными средствами, общаться с лицами, не участвующими в экзаменационном процессе, а также с другими кандидатами.

5.26. В случае выявления таких случаев экзамен прекращается, автоматизированной информационной системой (сотрудником ГСБДД, наблюдателем, оператором) кандидат отстраняется от экзамена и получает итоговую оценку «не сдал».

5.27. Когда теоретический экзамен выявляет (или имеет место) ошибку в автоматизированной информационной системе, итоговая оценка для кандидатов в водители аннулируется, а тест повторяется (повторно проводится) после устранения неисправности.

5.28. По результатам теоретического экзамена автоматически формируется экзаменационный лист водителя и протокол результатов экзамена в электронном виде, утверждается QR кодом, по желанию кандидата в водители распечатанная бумажная версия экзаменационного листа будет ему предоставлена.

5.29. AITda nazariy imtihonni muvaffaqiyatli topshirgan nomzodlar amaliy imtihon uchun 2-sonli kassada mavjud QR-kod orqali to'lov qilishlari va amaliy imtihon kutish zalida (shtrix-kod va QR-kod skaneri yordamida) amaliy imtihon topshirish uchun navbatda turishi kerak. Navbat dispetcheri nomzodni imtihonga taklif qilganda, nomzodning ismi va raqami yashil rangda ko'rinadi va ovozli ogohlantirish eshittiriladi. Keyin nomzod avtomatlashtirilgan avtodromga amaliy imtihonni topshirish uchun o'tadi.

## § 2. AMALIY IMTIHONNI O'TKAZISH TARTIBI

5.30. Avtomatlashtirilgan avtodromda amaliy imtihonlarni o'tkazishda avtotransport vositalarining harakatlanish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar (test mashqlari ketma-ketligi) <https://yim.uz> saytida va bevosita axborot stendlarida joylashtiriladi.

5.31. Amaliy imtihon tegishli toifaga kiruvchi (transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi sinov) va amaliy mashg'ulot natijalarini avtomatik qayd qiluvchi qurilmalar bilan jihozlangan maxsus transport vositasida o'tkaziladi.

5.32. Barcha turdagi transport vositalarini boshqarish huquqi uchun amaliy imtihon avtomatlashtirilgan avtodrom sharoitlarida tekshiriladi va baholanadi.

5.33. Avtotransport vositalari toifalari bo'yicha amaliy imtihon vaqtida bajariladigan test mashqlari ro'yxati Bajaruvchi tomonidan ishlab chiqiladi, YHXBB bilan kelishiladi va Bajaruvchi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

5.34. Amaliy imtihon davomida bajarilgan har bir test mashqi, shuningdek, yakuniy natijalarni inson omilisiz baholash, ularga o'zgartirishlar kiritish imkoniyatini to'liq cheklash avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan avtomatik tarzda nazorat qilinadi.

5.35. Amaliy imtihonlar yo'l harakati qoidalari talablari asosida, transportni boshqarishni o'rganish uchun mo'ljallangan mexanik avtotransport vositalarida o'tkaziladi.

5.36. Tekshiruv boshlanishidan oldin ko'rikdan o'tkazilayotgan transport vositasining texnik holati xo'jalik yurituvchi subyektning mas'ul mansabdor shaxsi tomonidan tekshiriladi va bu haqda transport vositasining yo'l varaqasida qayd etiladi.

5.29. Кандидатам, успешно сдавшим теоретический экзамен, в АЭС необходимо оплатить практический экзамен используя имеющийся QR-код в кассе №2 и встать в очередь для прохождения практического экзамена, в зале ожидания практического экзамена (при помощи сканера штрих-кодов и QR-кодов). Когда диспетчер очереди пригласит кандидата на экзамен – фамилия и номер кандидата высветится зеленым и прозвучит звуковое оповещение. Затем кандидат проходит на автоматизированный автодром для прохождения практического экзамена.

## § 2. ПОРЯДОК ПРОВЕДЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКОГО ЭКЗАМЕНА

5.30. При проведении практических экзаменов на автоматизированном автодроме информация о схеме движения автотранспортных средств (последовательность тестовых упражнений) размещается на сайте <https://yim.uz> и непосредственно на информационных стендах.

5.31. Практический экзамен проводится на специальном автотранспортном средстве, которое относится к соответствующей категории (испытание на право управления автотранспортным средством) и оборудовано устройствами, автоматически фиксирующими результаты практических занятий.

5.32. Практический экзамен на право управления всеми видами автотранспортных средств проверяется и оценивается в условиях автоматизированного автодрома.

5.33. Перечень тестовых упражнений, подлежащих выполнению на практическом экзамене по категориям автотранспортных средств, разрабатывается Исполнителем, согласовывается с ГУБДД и утверждается руководителем Исполнителя.

5.34. Каждое тестовое упражнение, выполняемое в ходе практического экзамена, а также оценка итоговых результатов без учета человеческого фактора, полное ограничение возможности внесения в них изменений автоматически контролируется в автоматизированной информационной системе.

5.35. Практические экзамены проводятся на механических транспортных средствах, предназначенных для обучения вождению, в соответствии с требованиями ПДД.

5.36. Перед началом осмотра техническое состояние проверяемого транспортного средства проверяется ответственным должностным лицом субъекта хозяйствования, о чем делается отметка в путевом листе транспортного средства.

5.37. Avtomatlashtirilgan avtodromda yuzaga kelgan texnik nosozliklar sababli uzoq (yetti kundan ko'p) muddat avtomatlashtirilgan avtodrom tizimida imtihon olish imkoni bo'lmagan taqdirda, amaliy imtihonlar Davlat ta'lim muassasalari va avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa yuridik shaxslarning o'quv guruhlarini ro'yxatga olish, shuningdek, imtihonlarni o'tkazish va milliy haydovchilik guvohnomasini berish tartibi to'g'risida nizomda belgilangan tartibda o'tkaziladi.

5.38. Bunday imtihonlar Bajaruvchining obyektlarida (avtodromida) o'tkazilgan taqdirda, imtihon komissiyasi tarkibiga avtomatlashtirilgan avtodromning xodimi (haydovchi-instruktor, usta) kiritiladi.

5.39. Amaliy imtihonlar boshlanishidan avval avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi tegishli test dasturlari yordamida avtomatlashtirilgan avtodrom holati, harakatni tashkil etishning texnik vositalarining to'liqligi va to'g'riligi tekshiriladi.

5.40. Avtomatlashtirilgan avtodromda test mashqlarini o'tkazish tartibi (bajarilish ketma-ketligi, natijalarni baholash mezonlari) Bajaruvchi tomonidan ishlab chiqiladi, YHXBB bilan kelishiladi va Bajaruvchi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

5.41. Avtomatlashtirilgan avtodrom va tizimlarning holati doimiy ravishda avtomatik tarzda nazorat qilinishi, ma'lumotlar (ma'lumot, ishora) avtodromning boshqaruv xonasidagi ish joyida monitorda ko'rsatilishi kerak, amaliy imtihonlar nosozlik bartaraf etilgunga qadar to'xtatilishi va tugallanmagan sinovlar natijalari bekor qilinishi kerak.

5.42. Amaliy imtihonlarning yakuniy natijalari ko'ra, haydovchining avtotransport vositasini boshqarish qobiliyati avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan agar natija ijobiy bo'lsa, «topshirdi», salbiy bo'lsa, «topshirmadi» deb baholanadi.

5.37. В случае отсутствия возможности приема экзаменов в системе автоматизированного автодрома в течение длительного срока (более семи дней) по причине технических неисправностей, возникших на автоматизированном автодроме, практические экзамены проводятся в порядке, установленном Положением о порядке регистрации государственных образовательных учреждений и учебных групп других юридических лиц, осуществляющих деятельность по оказанию негосударственных образовательных услуг в сфере подготовки, переподготовки и повышения квалификации водителей автотранспортных средств и средств городского электрического транспорта, а также проведения экзаменов и выдачи национального водительского удостоверения.

При проведении таких экзаменов на объектах (автодроме) субъектов предпринимательства в состав экзаменационной комиссии включается сотрудник автоматизированного автодрома (водитель-инструктор, мастер).

5.38. В случае проведения таких экзаменов на автоматизированном автодроме Исполнителя в состав экзаменационной комиссии включается работник автоматизированного автодрома (водитель-инструктор, мастер).

5.39. Перед началом практических экзаменов проверяются состояние автоматизированного автодрома, комплектность и правильность технических средств организации движения с использованием соответствующих тестовых программ в автоматизированной информационной системе.

5.40. Порядок проведения тестовых упражнений на автоматизированном автодроме (последовательность выполнения, критерии оценки результатов) разрабатывается Исполнителем, согласовывается с ГУБДД и утверждается руководителем Исполнителя.

5.41. Состояние автоматизированных автодрома и систем должно постоянно контролироваться в автоматическом режиме, информация (информация, сигнал) должна выводиться на монитор на рабочем месте диспетчерской автодрома, практические экзамены должны быть приостановлены до устранения неисправности, незавершенный результат испытаний должен быть отменен.

5.42. По окончательным результатам практических экзаменов умение водителя управлять транспортным средством автоматически оценивается автоматизированной информационной системой как «сдал» при положительном результате и «не сдал» при отрицательном результате.

5.43. Nomzodning haydovchilik imtihonidan o'tganlik bahosi avtomatlashtirilgan axborot tizimida bir yil davomida saqlanadi, haydovchining imtihon varaqasi va imtihon natijalari to'g'risidagi hisobot avtomatik ravishda elektron ko'rinishda shakllantiriladi, QR-kod bilan tasdiqlanadi, haydovchining imtihon varaqasi qog'ozda chop etiladi va imtihondan o'tgan Buyurtmachiga taqdim qilinadi.

## 6. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

6.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ushbu Shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Bajaruvchi amaliy imtihon davomida Buyurtmachi va/yoki boshqa uchinchi shaxslarning mol-mulki va sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

## 7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarimaslik ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin Tomonlar oldindan ko'ra olmagan va oqilona choralardan bilan oldini ololmagan favqulodda hodisalar (fors-major) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadilar. Shu bilan birga, hech bir Tomon mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplashni talab qilishga haqli emas, bundan oldin olingan mablag'larni qaytarish majburiyatlari bundan mustasno.

7.2. Favqulodda vaziyatlarga quyidagilar kiradi: suv toshqini, yong'in, zilzila, portlash, bo'ron, tuproqning cho'kishi, epidemiya va boshqa tabiiy hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar, fuqarolar tartibsizliklari, terroristik hujumlar, eksportga embargolar va boshqalar.

7.3. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlarini amal qiladigan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

7.4. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmagan Tomon 3 (uch) bank kuni ichida ushbu majburiyatlarning yuzaga kelishi va bekor qilinganligi to'g'risida xabardor qilishi shart.

5.43. Оценка кандидата за сдачу экзамена по вождению хранится в автоматизированной информационной системе в течение одного года, водительский экзаменационный лист и отчет о результатах экзамена автоматически формируются в электронном виде, подтверждаются QR-кодом, экзаменационный лист водителя распечатывается на бумаге и предъявляется Заказчику, сдавшему экзамен.

## 6. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН

6.1. За неисполнение или ненадлежащее исполнение своих обязательств по настоящему Договору Стороны несут ответственность в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан и настоящим Договором.

6.2. Исполнитель не несет ответственность ни за какой вред, причиненный имуществу и здоровью Заказчика и/или иных третьих лиц в процессе проведения практического экзамена.

## 7. ФОРС-МАЖОР

7.1. Стороны освобождаются от ответственности за частичное или полное неисполнение обязательств, если такое неисполнение вызвано обстоятельствами непреодолимой силы, возникшими после заключения настоящего Договора в результате событий чрезвычайного характера, которые Стороны не могли предвидеть и предотвратить разумными мерами (форс-мажор). При этом ни одна из Сторон не вправе требовать возмещения возможных убытков, кроме обязательств по возврату ранее полученных средств.

7.2. К событиям чрезвычайного характера относятся: наводнение, пожар, землетрясение, взрыв, шторм, оседание почвы, эпидемия и иные явления природы, война или военные действия, гражданские волнения, теракты, эмбарго на экспорт и другие.

7.3. При наступлении форс-мажорных обстоятельств, срок исполнения обязательств отодвигается соразмерно времени, в течение которого будут действовать такие обстоятельства и их последствие.

7.4. Сторона, для которой создавалась невозможность исполнения обязательств по настоящему Договору, обязана в течение 3 (трех) банковских дней известить о наступлении и прекращении указанных обязательств.

7.5. Yuqoridagi holatlarning mavjudligi va ularning davomiyligining isboti, tegishli vakolatli organlarning guvohligi bo'ladi.

## 8. SHAXSIY MA'LUMOTLAR

8.1. Buyurtmachi imtihon topshirish uchun arizani ro'yxatdan o'tkazish va to'ldirishda o'z shaxsiy ma'lumotlarini <https://cabinet.yim.uz> saytida joylashgan jadvalga kiritib, Bajaruvchi tomonidan ushbu shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmasdan va ulardan foydalangan holda qayta ishlashga rozilik beradi.

8.2. Buyurtmachi shu bilan o'zi kiritgan shaxsiy ma'lumotlarini Bajaruvchi tomonidan qayta ishlash uchun topshirishini va ularni qayta ishlashga rozi ekanligini tasdiqlaydi.

8.3. Buyurtmachi, shuningdek, uning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish 2019-yil 2-iyuldagi № 547-O'RBQ «Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni asosida Bajaruvchi tomonidan amalga oshirilishi to'g'risida xabardor qilinadi va shu munosabat bilan Buyurtmachi zarur hollarda, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi.

8.4. Buyurtmachi Bajaruvchiga quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi:

- familiyasi, ismi, otasini ismi;
- tug'ilgan sana (yil, oy, kun);
- yashash manzili;
- jismoniy holati;
- ta'lim muassasalari.

8.5. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashdan maqsad, Bajaruvchi tomonidan ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarishdir.

8.6. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ichidan chiqarib olish, foydalanish, jo'natish (tarqatish, taqdim etish, ma'lumotlarga ruxsat berish), shaxssizlantirish, bloklash, o'chirish, yo'q qilish.

8.7. Shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga yuborish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda Bajaruvchi va Buyurtmachi o'rtasidagi rozilikka muvofiq amalga oshiriladi.

7.5. Надлежащим доказательством наличия вышеуказанных обстоятельств и их продолжительности будут служить свидетельства соответствующих компетентных органов.

## 8. ПЕРСОНАЛЬНЫЕ ДАННЫЕ

8.1. Заказчик, внося при регистрации и оформлении заявлением о проведении экзамена свои персональные данные, в форму, расположенную на сайте <https://cabinet.yim.uz>, дает свое согласие на обработку этих персональных данных Исполнителем, как без использования средств автоматизации, так и с их использованием.

8.2. Настоящим Заказчик подтверждает, что он передает введенные им свои персональные данные, для обработки Исполнителем и согласен на их обработку.

8.3. Заказчик также уведомлен, что обработка его персональных данных будет осуществляться Исполнителем на основании Закона от 02.07.2019 г. № ЗРУ-547 «О персональных данных», в связи с чем Заказчик при необходимости выдает согласие на обработку персональных данных.

8.4. Заказчик дает Исполнителю согласие на обработку следующих персональных данных:

- фамилия, имя, отчество;
- дата рождения (год, месяц, день);
- адрес проживания;
- физическое состояние;
- образовательные учреждения.

8.5. Целями обработки персональных данных является исполнение Исполнителем условий настоящей Публичной оферты.

8.6. В ходе обработки с персональными данными будут совершены следующие действия: сбор, запись, систематизация, накопление, хранение, уточнение (обновление, изменение), извлечение, использование, передача (распространение, предоставление, доступ), обезличивание, блокирование, удаление, уничтожение.

8.7. Передача персональных данных третьим лицам осуществляется в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и соглашениями между Исполнителем и Заказчиком.

8.8. <https://cabinet.yim.uz> saytida ro'yxatdan o'tish va imtihon uchun ariza to'ldirish orqali Buyurtmachi o'zi kiritgan shaxsiy ma'lumotlar Bajaruvchiga ochiq bo'lishiga rozi bo'ladi.

## 9. NIZOLARNI HAL QILISH

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha barcha nizolar Tomonlar tomonidan muzokaralar yo'li bilan, agar kelishuvga erishishning iloji bo'lmasa – Bajaruvchining joylashgan joyi bo'yicha sud orqali hal qilinadi.

## 10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Ushbu Ommaviy ofertaning amaldagi versiyasi <https://yim.uz> saytida joylashtirilgan va Internet tarmog'ida mavjud.

10.2. Bajaruvchining ish vaqti (xizmat ko'rsatish vaqti): har kuni (yakshanbadan tashqari) soat 09:00 dan 18:00 gacha va tanaffuslarsiz.

10.3. Ushbu Ommaviy ofertani tuzish (qabul qilish) orqali Buyurtmachi imtihonlarga kirishdan oldin Ommaviy ofertani o'rganganligini, undagi shartlarga roziligini va uni o'zi uchun majburiy deb tan olganligini tasdiqlaydi.

10.4. Ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan holatlarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ish tutadilar.

## 11. BAJARUVCHINING REKVIZITLARI:

«AUTODRIVER STUDY» MCHJ  
Manzil: Toshkent shahri, Yangiheyot tumani,  
Fayzli MFY, Aeroport hududi ko'chasi, 87-uy  
STIR: 305 085 603  
h/r № 2020 8000 0008 0521 6001  
«IPAK YO'LI» AITB OPERB MFO: 00444  
Tel.: (55) 510-20-02

8.8. Регистрируясь на сайте <https://cabinet.yim.uz> и оформляя заявление о проведении экзамена, Заказчик соглашается, что введенные им его персональные данные, становятся доступны Исполнителю.

## 9. РАЗРЕШЕНИЕ СПОРОВ

9.1. Все споры по настоящему договору разрешаются Сторонами путем переговоров, а при невозможности достижения согласия – в судебном порядке по месту нахождения Исполнителя.

## 10. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ

10.1. Действующая редакция настоящей Публичной оферты размещена на сайте <https://yim.uz> и доступна в сети Интернет.

10.2. Режим работы Исполнителя (время оказания услуг): ежедневно с 09:00 часов до 18:00 часов без перерыва (кроме воскресенья).

10.3. Заключая (акцептуя) настоящую Публичную оферту, Заказчик подтверждает, что до допуска к проведению экзаменов он изучил Публичную оферту, согласен с ней и признает её для себя обязательной.

10.4. В случаях, не предусмотренных настоящей Публичной офертой, Стороны руководствуются действующим законодательством Республики Узбекистан.

## 11. РЕКВИЗИТЫ ИСПОЛНИТЕЛЯ:

ООО «AUTODRIVER STUDY»  
Адрес: г. Ташкент, Янгихаётский район,  
Файзли МСГ, ул. Аэропорт худуди, 87  
ИНН: 305 085 603  
р/с № 2020 8000 0008 0521 6001  
в ОПЕРУ АИКБ «Ипак Йули» МФО: 00444  
Тел.: (55) 510-20-02